



MILLIY MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Farhodova Aziza

TDIU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17221253>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- sentabr 2025 yil
Ma'qullandi: 25- sentabr 2025 yil
Nashr qilindi: 29- sentabr 2025 yil

KEYWORDS

Moliya bozori, moliyaviy
isnstrumentlar, qimmatli
qog'ozlar, aksiyalar,
aksiyadorlik jamiyatlari,
qimmatli qog'ozlar bozori,
moliyaviy resurslar, bozr
kapitalizatsiyasi, moliyaviy
savodxonlik, korarativ
boshqaruv.

ABSTRACT

Mazkur maqolada milliy moliya bozorini yanada takomillash-tirishning o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiyot rivojida tutgan o'рни va ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar savdosi orqali moliya bozorida ishtirok etish amaliyotini tashkil etish bo'yicha tadqiqot olib borgan xorijiy va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari keltirilgan hamda xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda mamlakatimizda moliya bozorining hozirgi holati tahlili asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Bugungi globalizatsiya zamonida bozor iqtisodiyotida moliya bozorini rivojlantirish orqali bo'sh pul mablag'larini maqsadli yo'naltirish va taqsimlash kapitalizatsiyani tashkil etadi. Bunda korxonalar o'zining iqtisodiy holatiga qarab qimmatli qog'ozlar emissiyani amalga oshirishi orqali nafaqat aksiyadorlik jamiyatlari uchun balki jismoniy shaxslar uchun ham foydali bo'lishida oz hissasini qoshmog'i lozim.

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish hamda oldi-sotisini amalga oshirishda aksiyadorlik jamiyati muhim ro'l o'ynaydi. Milliy moliya bozorida asosan brokerlik tashkilotlari orqali amalga oshirish mumkin. Bunday kompaniyalar aksiyadorlik jamiyatiga qimmatli qog'ozlarni chiqarishda, IPO hamda SPO o'tqazish orqali ommaviy joylashtirishda vositachi ro'lini o'ynaydi.

Shuni ham takidlash joizki, aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalini oshirishga hamda moliya bozorining infratuzilmasini to'liq o'rgangan holda bo'sh pul mablag'larni harakatlantirishga imkon yaratishi lozim.

Respublikamiz fond bozori infratuzilmasini rivojiga ta'sir etuvchi omillarni chuquroq tahlil qilish va unda insonlar manfaatlariga qaratilgan aniq maqsadlar belgilanganligi moliya bozori ishtirokchilari uchun katta imkoniyat deyishimiz mumkin. Ayniqsa, ushbu masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "... moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak", deb alohida ta'kidlab o'tganlar.

Shuningdek, moliya bozori rivojlangan mamlakatlar andozasi asosida milliy moliya

bozorini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish mumkin. Xususan, aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali passiv daromad topish imkoniyatni yaratish mumkin. Bu asosida xalqchil IPO amaliyoti yo'lga qo'yilganligi milliy bozordagi ilk qadam desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yuqoridagi ta'kidlangan holatlar shuni ko'rsatadiki, birinchi navbada fond bozorlari infratuzilmasini zamon talablari asosida rivojlanishi uchun shu bozorlarda chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarning likvidligini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlari moliya bozorida faol ishtiroki uchun qulay sharoit yaratish, aholi ortasida passiv daromad topish uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish lozim. Ularning yana bir xususiyatli belgisi-bu ularning risk darajalariga tobeligini hisoblanadi. Shuningdek, fond bozori infratuzilmasini samarali rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni samarali tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish lozim.

Adabiyotlar sharhi.

Ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan miliy moliya bozorini rivojlantirish mavzu bo'yicha dolzarb g'oyalari bozorlar rivojlanish xususiyatlari va undagi moliyaviy vositalarga e'tibor qaratilgan.

Moliya bozori nazariyasi ancha ilgari surilgan bo'lsada ning amaliyotdagi rivoji asrmizga kelib shiddat bilan rivojlandi. Lekin nazariy asoslar o'tgan asr yarmida katta yutuqlar keltirgan. Moliya bozorida qimmatli qog'ozlar daromadlilikiga ta'sir qiluvchi omillarni tushunish muhim ahamiyat kasb etishini amerikalik iqtisodchi olimlardan B.G.Malkiyel va Anjelo Melinolar "Kutilishlar gipotezasi nazariyasi" da izohlab bergan¹.

Ushbu nazariyaga ko'ra, forvard foiz stavkalari bozor ishtirokchilarining qisqa muddatli foiz stavkalarining kelajakdagi o'zgarishiga oid prognozlar va tegishli risk mukofoti bilan belgila-nadi. Ammo, ushbu kutishlarni qanday modellashtirish bo'yicha bir qator munozaralar mavjud. Ushbu nazariyada qimmatli qog'ozlardan biri bo'lgan forvard foiz stavkalari bozor ishtirokchilarining qisqa muddatli foiz stavkalarining kelajakdagi o'zgarishiga oid prognozlar va tegishli risk mukofoti bilan belgilanishi aytilgan. Biroq, ushbu kutishlarni qanday modellashtirish bo'yicha bir qator so'roqlar ochiqlanmagan.

B. Rubtsov tomonidan zamonaviy fond bozori o'rganib chiqilgan va rivojlangan yoki bo'lmasa rivojlanayotgan davlatlardagi fond bozori holatini, unda aksiya bozorining rivojlanish tendensiyasini tahlil qilgan².

Professor Sh. Sh. Shoha'zamiy fikriga ko'ra, moliyaviy instrumentlar bank kapitalini oshirishga, likvidligini, bozor kapitalashuv darajasini oshirishga olib boruvchi sifatida moliyaviy resurslarni investorlardan iste'molchilarga tomon va aksincha yo'nalishda harakat qilishini ta'minlovchi vositalar hisoblanadi³.

Tahlil va natijalar

Moliya bozorida iqtisodiyotning asosan savdo hamda sanoat yo'nalishlarining rivojlanishida pul oqimini jalb etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, moliyaviy aktivlar bo'lgan qimmatli qog'ozlar o'z egasiga hamda aksiyadorlik jamiyatlarida foyda keltirish uchun eng maqbul yo'l hisoblanadi.

¹ Malkiel, B.G., –1966, The Term Structure of Interest Rates: Expectations and Behaviour, Princeton University Press, Princeton, NJ. Melino, A., –1988, "The Term Structure of Interest Rates: Evidence and Theory", –Journal of Economic Surveys, –2, No.4, –335 ff.

² Рубцов Б.Б. Современное фондовые рынки. Учебное пособие для вузов. –М.: Альпина Бизнес Букс, 2007 –926 с

³ Шоҳъзамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга 1. Учебник. –Т.: Iqtisod-moliya, 2005. –сс.13, 31-34.-----

Mamlakat iqtisodiyoti rivojida moliya bozorini rivojlantirish bugungi kunning shiddatli rivojlanib kelayotgan sohalaridan biri bo'lib kelmoqda. Bunda andoza sifatida jahon iqtisodiyotining global rivojlanishi davrida moliya bozorlaridagi operatsiyalar yanada faollashib, iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanib ulgurdi. Iqtisodiy tahlillarga ko'ra, so'nggi 15–20 yillarda global moliya bozorlari intensiv ravishda o'sib bordi va moliyaviy instrumentlarning xalqaro muomalasi trillionlab AQSh dollariga yetdi. Moliya bozorlari hajmi yalpi ichki mahsulot qiymatlariga nisbatan tez sur'atlar bilan o'sib kelgan va iqtisodiy subyektlar uchun kapitalga erishishga va tavakkalchiliklarni samarali taqsimlashga imkoniyat yaratdi.

Xususan, Jahon standartlari asosida O'zbekiston Respublikasida ham milliy qimmatli qog'ozlar chiqarish bo'yicha bir qancha qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilgan bo'lib, yildan yilga takomillashtirib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida aksiyadorlik jamiyatlari kapitalizatsiyalash uchun investorlar jalb qilish hamda fond bozorida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratib bermoqda.

Fond bozoridagi hozirgi holat shuni ko'rsatdiki, aholi va investorlarning, shu jumladan, xorijiy investorlarning erkin mablag'larini jalb qilish hisobiga kapitalning milliy bozori tomonidan iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish bo'yicha asosiy vazifalari biri bo'lmoqda. Shunday bo'lsada, fond bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar, bu bozorni boshqarishdagi tashkiliy tuzilmalarning zamonaviy talablarga javob bermasligi, aksiyadorlik jamiyatlariga ortiqcha talablarning qo'yilishi, shuningdek, fond bozori sektorlarini isloh qilishda balanslashgan yondashuvlarga javob bermaydigan bozorning respublikadagi xususiylashtirish jarayonlari bilan bog'liqligi bo'ldi. O'zbekistonda fond bozorining ancha yildan beri faoliyat yuritib kelayotganiga qaramay, bugungi kunda respublikada fond bozori hali hanuz rivojlanish bosqichida desa ham bo'ladi. Buning asosiy sababi sifatida birinchi navbatda moliyaviy tahlilda barcha hisobotlar to'liq xalqaro standard asosida emasligi bo'lsa, ikkinchi sabab qilib aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlik hisoblanadi. Bu muammolarni kamaytirish maqsadida bir qancha brokerlik tashkilotlari tomonidan aholiga pul mablag'larini to'g'ri yonaltirish uchun bir qancha tavsiya va tushuntirish ishlari olib borilishiga qaramay bu ular uchun katta risk bo'lib qolmoqda. Shunday bo'lsada, kapital bozorini rivojlantirish agentligi milliy moliya bozorini rivojlantirish maqsadida qimmatli qog'ozlar erkin muomalada bo'lishi uchun izchil chora-tadbirlar ko'rmoqda.

Albatta, milliy moliya bozori ni tashkil etishda moliyaviy institutlarining xissasi yuqori darajada hisoblanadi. Moliyaviy insitutlar asosan, pul mablag'larini tartibga solish, korxonalarni moliyalashtirish, bank hamda sug'urta xizmatlari, kapitalni shakllantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam berish orqali ahamiyatli hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, ular iqtisodiyotdagi jis-moniy shaxslarning bo'sh jamg'armalarini turli xil pul xizmatlari orqali investorga safarbar qiladilar.

Xulosa

1.Fond bozorlarini rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari va bozorlar samarasini oshirishuvchi tijorat banklarni noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish muhim afzalliklar olib keladi.

2.Fond bozorlarini rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari va bozorlar samarasini oshirishuvchi tijorat banklarni noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish muhim afzalliklar olib keladi.

3.Fond bozorlarini rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari va bozorlar samarasini oshirishuvchi tijorat banklarni noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish muhim afzalliklar olib keladi.

4.Fond bozorlarini rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari va bozorlar samarasini oshirishuvchi tijorat banklarni noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish muhim afzalliklar olib keladi.

5.Fond bozorlarini rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari va bozorlar samarasini oshirishuvchi tijorat banklarni noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish muhim afzalliklar olib keladi.

6.Fond bozorlarini rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari va bozorlar samarasini oshirishuvchi tijorat banklarni noan'anaviy instrumentlarini keng joriy

7.Fond bozorlarini rivojlantirishda o'ziga xos xususiyatlari va bozor samaradorligini oshiruvchi aksiyadorlik jamiyatlarini to'liq moliyaviy holatini ko'rsatuvchi baza tashkil etish muhim afzallikka olib keladi.

8.Aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali passiv daromad topishi uchun maxsus institute tashkil etish lozim.

9.Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida pul mablag'larining likvidligini oshirish orqali xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani rivojlantirish lozim.

Foydalanilgan adaiyotlar ro'yxati:

- 1.Malkiel, B.G., -1966, The Term Structure of Interest Rates: Expectations and Behaviour, Princeton University Press, Princeton, NJ. Melino, A., -1988, "The Term Structure of Interest Rates: Evidence and Theory", -Journal of Economic Surveys, -2, No.4, -335 ff.
- 2.Рубцов Б.Б. Современное фондовые рынки. Учебное пособие для вузов. -М.: Альпина Бизнес Букс, 2007 -926 с
- 3.Шоҳаъзамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга 1. Учебник. -Т.: Iqtisod-moliya, 2005. -cc.13, 31-34.-----
- 4.<https://uzanalytics.com/iqtisodi%b5t/6772/>
- 5.<https://cmda.gov.uz/news/> - O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligining rasmiy veb-sayti.